

SHUKUR XOLMIRZAEV HIKOYALARIDA QAHRAMON RUHIYATI VA MILLIY KOLORIT IFODASI

Abduraimova Hilola Usmon qizi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

Annotatsiya. *Shukur Xolmirzayev o'zbek adabiyotida hayotning asl qiyofasini o'ziga xos tarzda aks ettira olgan yozuvchilardan biridir. Uning ijodi xalq hayoti, urf-odatlar, qadriyatlar va dunyoqarashi bilan chambarchas bog'liq. Ayniqsa, yozuvchining hikoyalarida milliy kolorit, ya'ni xalqona ruh, an'anaviy qarashlar va turmush tarzining badiiy ifodasi alohida o'rin egallaydi. O'zbek adabiyoti ravnaqiga munosib hissa qo'shgan iste'dodli yozuvchimiz Shukur Xolmirzayev ijodini har qancha o'rgansak kamlik qiladi. Shu maqsadda mazkur maqolada yozuvchining hikoyalari poetikasi, badiiyati, yozuvchi hikoyalarida qahramon ruhiyati va milliy koloritning ifodalanishi, yozuvchi uslubidagi o'ziga xos mahorati va boshqa jihatlar xususida fikr yuritamiz.*

Kalit so'zlar: *Hikoya, badiiyati, qahramon ruhiyati, milliylik, kolorit, ziddiyatlar, tabiat unsuri, dunyoqarashi, an'anaviylik.*

Shukur Xolmirzayev o'zbek adabiyotida o'ziga xos ovozga ega yozuvchilardan biridir. Uning hikoyalari zamonaviy inson ruhiyatining nozik jihatlarini, milliy hayotning rang-barang ko'rinishlarini tasvirlashda alohida o'rin tutadi. Yunon faylasufi Aristotel o'zining “Poetika” sida shunday degan edi: “Ba'zi kishilar mahorat, ba'zilar malaka sababli, yana ba'zilar tug'ma iste'dodlari tufayli bo'yoqlar va shakllar yordamida ko'p narsalarning tasvirini— o'xshashini tasvirlaydilar. Hozirgina eslab o'tilgan san'atlarning hammasida ham alohida yo'riq, yo'riq va yoxud garmoniya yordamida, yoki shularning hammasi uyg'unligida tasvirlaydilar.”¹⁶⁸

Muallifning ijodida qahramon ruhiyati va milliy kolorit bir-biri bilan uyg'unlashib, o'quvchiga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Milliy kolorit deganda, adabiy asarda xalqning urf-odati, tili, kiyim-kechagi, qadimiy qarashlari, atrof-muhitga munosabati, yashash tarzi va mentaliteti badiiy ifodalanishini tushunamiz. Shukur Xolmirzayev hikoyalarining asosiy ustunlaridan biri — qahramonlarning ichki kechinmalarini batafsil ochib berishidir. Uning qahramonlari o'z ichki dunyosida sodir bo'layotgan murakkab kechinmalar, ziddiyatlar orqali o'zini anglash jarayonidan o'tadi. Muallif har bir qahramonning ruhiy holatini nozik tafsilotlar bilan tasvirlab, ularning insoniylik, umid, alam va quvonch kabi tub tuyg'ularini

¹⁶⁸ Арасту, ПОЭТИКА. Тошкент. “Янги аср авлоди” 2011 й. 20 с

o'quvchiga yaqinlashtiradi. Shu tariqa, qahramonlar nafaqat voqealar ishtirokchisi, balki o'z-o'zini anglash jarayonidagi murakkab shaxs sifatida gavdalanitiriladi. Xolmirzayevning hikoyalarida milliy kolorit muhim o'rin egallaydi. U o'zbek xalqining urf-odatlarini, an'analari, xalq tabiatining o'ziga xos jihatlari jonli va tabiiy tarzda tasvirlaydi. Bu milliy rang-harakatlar qahramonlarning xarakteri va ruhiy kechinmalarini yanada chuqurlashtiradi. Masalan, qahramonlarning kundalik hayotidagi an'anaviy qadriyatlar, bayramlar, xalq hayotiga oid kichik-chicik tafsilotlar hikoyalar sahnasini yanada jonlantiradi va o'quvchini o'sha muhitga kirib borishga chorlaydi. Bu esa hikoyaning nafaqat badiiy, balki madaniy ahamiyatini ham oshiradi. Xolmirzayevning hikoyalarida milliy kolorit muhim o'rin egallaydi. U o'zbek xalqining urf-odatlarini, an'analari, xalq tabiatining o'ziga xos jihatlari jonli va tabiiy tarzda tasvirlaydi. Bu milliy rang-harakatlar qahramonlarning xarakteri va ruhiy kechinmalarini yanada chuqurlashtiradi. Masalan, qahramonlarning kundalik hayotidagi an'anaviy qadriyatlar, bayramlar, xalq hayotiga oid kichik tafsilotlar hikoyalar sahnasini yanada jonlantiradi va o'quvchini o'sha muhitga kirib borishga chorlaydi. Bu esa hikoyaning nafaqat badiiy, balki madaniy ahamiyatini ham oshiradi. Muallifning hikoyalarida qahramon ruhiyati milliy muhit va uning ijtimoiy muammolari bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Hikoyalarda zamonaviylik va an'anaviylik o'rtasidagi qarama-qarshilik, ijtimoiy o'zgarishlar qahramonlarning ichki kechinmalarida aks etadi. Masalan, yosh avlodning qadriyatlar bilan yuzma-yuz kelishi yoki oilaviy munosabatlardagi o'zgarishlar qahramonlarni murakkab ruhiy vaziyatlarga soladi. Shunday qilib, milliy muhit qahramonlarning shaxsiy kechinmalarining asosiy kontekstini tashkil qiladi. Shukur Xolmirzayev bu borada o'zbek xalqining madaniy merosi, qadriyatlari va hayot falsafasini hikoyalarida sodda, ammo chuqur ma'noli uslubda aks ettira olgan. Yozuvchining ko'plab hikoyalarida voqealar qishloq muhitida, xalqning o'ziga xos turmush tarzida kechadi. Qishloq — bu yerda nafaqat geografik hudud, balki butun bir madaniyat va ruhiy holatni anglatadi. Adib asarlari qahramonlari aksari uning o'zi tug'ilib o'sgan tuproq — Surxon diyorining mehnatkashlaridir. Asar voqealari sodir bo'ladigan manzil ham ko'pincha shu voha bo'ladi. Shu voha qahramonlari timsoli misolida adib o'zbek xalqining, o'zbek tuprog'ining o'ziga xosliklarini tajassum etadi. "Shukur Xolmirzayevning asarlarida eng ko'p qo'llaniladigan detallar bu — tabiat unsurlari: turli daraxtlar, o't-o'lanlar, gullar, qushlar, hashoratlar va hayvonlardir. Ularni inson obraziga nisbat berish bilan adib tabiat va odamning yaqinligini, biri ikkinchisiz yashay olmasligini uqdirmoqchi bo'ladi. Ayni chog'da tabiat hodisalaridagi o'zgarishlarga, ularning o'ziga xosligi (masalan, yarmi qurigan do'lananing hamon gullab, meva tugishi, gap tomirning chuqur ketganligi, ya'ni mohiyatda ekani)ga urg'u berish orqali odamni o'z hayotiga e'tiborliroq bo'lishga undaydi. Ha, Shukurning asarlarida tabiat gapiradi, harakat qiladi, ko'rkini namoyish etish uchun

quturib gullab, bizni maftun etadi. Ruhیاتimizga osoyishtalik bag‘ishlab, umrimizni uzaytiradi”¹⁶⁹.

Yana bir muhim jihat — bu tilning milliyligi. Shukur Xolmirzayev xalq tilining jo‘rligidan, maqollardan, iboraviy vositalardan mahurat bilan foydalanadi. Bu nafaqat asarning badiiyligini oshiradi, balki o‘quvchini xalqning ruhiy olamiga yaqinlashtiradi. Uning personajlari sun‘iy emas, haqiqiy hayotda uchraydigan oddiy insonlar bo‘lib, ular orqali yozuvchi xalq ruhini, uning dunyoni qanday ko‘rishini ifodalaydi. Shuningdek, muallifning hikoyalarida urfdan o‘tgan qadriyatlar, mehnatga bo‘lgan munosabat, kattalarni hurmat qilish, tabiat bilan uyg‘un yashash kabi qadimiy qarashlar ham milliy koloritning muhim unsuri sifatida namoyon bo‘ladi. Muallif hikoyalarida milliy faqat tashqi belgilar orqali emas, balki inson qalbidagi o‘zbekona tuyg‘ular — vafodorlik, oriyat, sadoqat, sabr kabi tushunchalar orqali ham ifodalaydi. Bu jihatlar milliylikni faqat forma emas, balki mazmun darajasida ham yoritishga xizmat qiladi. Umarali Normatov Shukur Xolmirzayev hikoyalarining o‘ziga xos badiiy shakliga oid shunday degan edi: “ Shukur Xolmirzayev hikoyalari uslubi, ifoda usullari, tasvir ohangi, ritmikasi bilan e‘tiborni tortadi”¹⁷⁰ Shukur Xolmirzayev o‘z hikoyalarida insoniylik va milliy qadriyatlarni uyg‘unlashtirishga alohida e‘tibor beradi. Uning qahramonlari nafaqat shaxs sifatida, balki milliy madaniyat va an‘analarning bir qismi sifatida ham tasvirlanadi. Bu qahramonlarning hayotdagi qarorlari va munosabatlarida o‘z aksini topadi. “Notanish odam” nomli hikoyasi insoniylik, mehr-oqibat va hayotdagi tasodifiy uchrashuvlarning inson ruhiyatiga qanday ta’sir qilishi haqida. Hikoyada bosh qahramonning kundalik hayotida uchragan notanish odam bilan yuzaga kelgan voqea tasvirlanadi. Bu uchrashuv orqali qahramon o‘zini, atrofidagi dunyoni va odamlar bilan munosabatlarini qayta ko‘rib chiqadi.

Hikoya orqali Shukur Xolmirzayev inson va insoniyat orasidagi chuqur bog‘liqlik, insoniy mehr-shafqatning qadrini o‘rgatadi. Notanish odam bilan yuzaga kelgan kichik, ammo mazmunli voqea orqali hayotda har bir insonning bir-biriga qanday yordam berishi va ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi ta’kidlanadi.

Milliy til, urf-odatlar, mentalitet qahramonlarning xarakteriga chuqur ta’sir ko‘rsatadi, ularning ruhiy kechinmalarini yanada boyitadi. Bu jihat hikoyalar milliy o‘zlikni saqlab qolish va zamonaviy dunyoda o‘z o‘mini topish masalalarini ko‘tarishini namoyon etadi. Shukur Xolmirzayev hikoyalari milliy ong va ruhiyatning zamonaviy talqinini ifodalaydi.

¹⁶⁹ G. N. Tavaldieva. SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA TABIAT VA INSON MUNOSABATLARINING BADIY TALQINI— ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 1 | ISSUE 4 | 2020

¹⁷⁰ Normatov. U. Nasrimiz an‘analari. 205-bet

Muallif qahramonlar orqali milliy qadriyatlarni hurmat qilgan holda, ularni zamon talablariga moslashtirish zaruratini ko‘rsatadi. Hikoyalardagi qahramonlar o‘zbek milliy ruhiyatining o‘ziga xos jihatlarini namoyon etib, o‘zlikni anglash va jamiyatda o‘z o‘rnini topishga intilishadi. Shu yo‘nalishdagi ijtimoiy va ruhiy o‘zgarishlar ularning xarakterida va ruhiyatida o‘z aksini topadi. Shukur Xolmirzayevning “Navro‘z” hikoyasi milliy an‘analari, insoniylik va yangi umidlar ramzi sifatida Navro‘z bayramining o‘rni va ahamiyatini chuqur ochib beradi. Hikoya qahramonlarining ruhiy kechinmalari va ularning bayram orqali boshdan kechirgan o‘zgarishlari orqali milliy va insoniy qadriyatlar uyg‘unligi yoritiladi.

“Navro‘z” hikoyasida Navro‘z bayrami nafaqat qadimiy bayram, balki xalq hayotidagi yangilanish va umid ramzi sifatida tasvirlanadi. Muallif Navro‘z bayramining urf-odatlarini, xalq orasidagi tantanali kayfiyatni jonli tasvirlab, bu bayramning milliy madaniyatdagi muhim o‘rnini ko‘rsatadi. Hikoyada bayram arafasidagi tayyorgarliklar, oilaviy yig‘ilishlar, xalqning bir-biriga bo‘lgan iliq munosabatlari bayramning mehr-muhabbat va umid keltiruvchi mohiyatini ochib beradi. Navro‘z bayrami hikoyada jamiyatning barcha qatlamlarini birlashtiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Bayram kuni odamlar orasidagi qarama-qarshiliklar unutilib, qalblar ochilib, mehr-oqibat kuchayadi. Hikoyaning qahramonlari, bayram ta‘sirida o‘zaro tushunish va bag‘rikenglik ruhida harakat qilishadi. Bu esa Navro‘z bayramining ijtimoiy barqarorlik va tinchlik ramzi ekanligini ko‘rsatadi. Hikoyada qahramonlar Navro‘z orqali nafaqat tashqi bayramni, balki ichki yangilanish va umidlarni ham boshdan kechiradilar. Ularning ruhiy holati bayramning yorug‘ligi va ijobiyligi bilan to‘ladi. Shukur Xolmirzayev qahramonlarning hayotdagi qiyinchiliklarga qaramay, yangi boshlanishga intilishlarini, umid bilan to‘lishlarini tasvirlaydi. Bayram qahramonlarning qalbida ijobiy o‘zgarishlar, hayotga yangicha qarashlarni uyg‘otadi.

“Navro‘z” hikoyasi milliy qadriyatlarning zamonaviy hayotda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmasligini ta‘kidlaydi. Hikoyada bayramning qadimiy an‘analari zamonaviy odamlarning hayotiga uyg‘unlashib, ular uchun yangi ma‘no kasb etadi. Shukur Xolmirzayev milliy madaniyat va zamonaviylik o‘rtasidagi muvozanatni ko‘rsatib, an‘anaviy qadriyatlarni asrash va ulardan kelajak avlodga meros qilib qoldirish zarurligini ta‘kidlaydi. Shukur Xolmirzayevning “Navro‘z” hikoyasi milliy qadriyatlar, insoniylik va yangi umidlarning uyg‘unligi haqida chuqur tasavvur beradi. Hikoya qahramonlarning ichki ruhiy kechinmalari orqali Navro‘z bayramining faqat bayram emas, balki inson qalbini yangilaydigan, jamiyatni birlashtiradigan kuch ekanligini namoyish etadi. Muallif milliy madaniyat va zamonaviy hayot o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatib, an‘anaviy qadriyatlarning ahamiyatini o‘quvchiga yetkazadi. Shu bois, “Navro‘z” hikoyasi o‘zbek adabiyotida milliy ruhiyatni aks ettiruvchi muhim asarlardan biri hisoblanadi.

Xulosa. Shukur Xolmirzayevning hikoyalari qahramon ruhiyatining chuqur psixologik tahlili va milliy koloritning jonli ifodasi bilan ajralib turadi. Muallif o‘zbek xalqining milliy an‘analari va zamonaviylik o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib berishda o‘ziga xos uslubga ega. Hikoyalarda qahramonlarning ichki kechinmalari milliy muhiti bilan uyg‘unlashib, inson va millat o‘rtasidagi aloqaning nozikligini ta’kidlaydi. Shu sababli Shukur Xolmirzayev ijodi o‘zbek adabiyotida milliy ruhiyat va insoniylikni birlashtirgan muhim asarlar qatoriga kiradi.

Adib qahramonlarining ruhiyatini tasvirlar ekan, milliy dunyoqarashga mos kelmaydigan o‘rinlarga yo‘l qo‘ymaydi, natijada yozuvchining asarlarida milliy ruhiyat ifodasi qahramonlarning ishonarli, jonli chiqishi uchun asosiy omil vazifasini o‘taganligini kuzatdik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Арасту, ПОЭТИКА . Тошкент. “Янги аср авлоди”2011 й, 20 с
2. Normatov.U. Nasrimiz an‘analari. 205-bet
3. G. N. Tavalдиеva. SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA TABIAT VA INSON MUNOSABATLARINING BADIY TALQINI— ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 1 | ISSUE 4 | 2020